FORISH TUMANI TABIATIDAN OQILONA FOYDALANISHDA LANDSHAFT PLANIROVKA USULINI QO'LLASH IMKONIYATLARI

Nurbekova Yulduz Akmal qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti tyutori

Received: 11.10.2025
Revised: 12.10.2025
Accepted: 13.10.2025

Annotatsiya. Ushbu maqolada Forish tumani tabiatidan oqilona foydalanish usullari va uning ahamiyati haqida so'z yuritamiz.

Kalit so'zlar:
tabiat, landshaft, landshaft planirovkasi, ekologiya, muammo, yer resurslari, melioratsiya.

Annotation: In this article, we will discuss the methods of rational use of the nature of the Forish district and its importance.

Keywords:
nature, landscape, landscape planning, ecology, problem, earth resources, melioration.

Bugungi kunda insoniyat tomonidan juda ko'plab yangiliklar, nazariyalar ta'limotlar va turli xil mavzularga bag'ishlangan turli xil sohalarga oid loyihalar ishlab chiqilmoqda. Bularni yaratishdan maqsad aholining turmush tarzini yanada yaxshilashga va ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ammo buning natijasida tabiatga va atrof-muhitga shu bilan birgalikda ekologik muhitimizning ham ta'sir jarayoni ostida qolishiga sabab bo'lmoqda. Tabiat o'z "tabiiy"ligini yo'qotib bormoqda. Bunga sabab, antropogen omillarning kuchayib borishidir. Bu kabi jarayonlar tabiiy komponentlarning, balki butun geosistemaning o'zgarishiga olib kelishi va tabiatdan nooqilona foydalanish natijasida kuchli o'zgarishga uchragan landshaftlarni yuzaga keltirmoqda. Albatta yer resurslaridan to'g'ri va unumli foydalanish har birimizning burchimizdir. Ayni vaqtda bizga kirib kelgan yangi usul Landshaft planirovka usuli shu kabi muammolarning oldini olishda samarali foydalaniladi.

Respublikamizda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida hududlarning tabiiy resurs salohiyatidan ilmiy asosda foydalanish, yerlarning

meliorativ holatini yaxshilash, ularning sho'rlanishi va cho'llashishiga qarshi kurashish, odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta'minlash bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

"O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida" da "sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, melioratsiya va irrigatsiya obyektlari tarmoqlarini rivojlantirish"[1] yuzasidan muhim vazifalar belgilangan.

Jamiyat taraqqiyotining tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar keskinlashgan hozirgi bosqichida, tabiat va uning reurslaridan oqilona foydalanish taqozo etiladi. Shu boisdan ham bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida tabiatni muhofaza qilish va tabiatdan samarali foydalanishning iqtisodiy mehanizmlarini

yaratishga ayniqsa katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi aholining sog'ligi, atrof-muhit muhofazasi va tabiatdan foydalanishning holati bilan chambarchas bog'liqdir.

Tabiiy resurslardan va tabiatdan foydalanishni yaxshilash, atrof-muhitning ifloslanishi, buning oqibatida ko'rilayotgan zararlarni bartaraf etishga qaratilgan maqsadli usullarni izlash va asoslash muammolarini hal qilish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Shu maqsadda Forish tumanining yer fondi katta ekanligi, lekin unda qanchadan- qancha yer resurslari bo'sh va quruq yotganligi bizga ma'lum. Shu jihatdan qaraganda Forish tumanining tabiatidan oqilona

foydalanish va landshaft planirovka usulini qo'llash imkoniyatlari muhim ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. LP tavsiflarini o'rganish, ularning shakllanish omillari, yerga uzatish jarayonlari, hodisalarni to'liq inventarizatsiya qilish mexanizmi, muammolari va boshqa joylardagi ma'lumotlarning yer usti bazasini yaratish maqbul yo'lidir.[4]

Landshaft planirovkasi – bu muvofiqlashtirish mexanizmlari orqali turli darajadagi subyektlar va qaror qabul qiluvchilarni birlashtiradigan fanlararo

[1]O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida» gi Farmoni

vositadir. Uning yordami bilan ekologik muammolar va kamchiliklar aniqlanadi va rivojlanishning yangi yo'llari taklif etiladi. Bu raqobatdosh variantlar mavjud bo'lgan taqdirda yechimlarni topish va zarur bo'lganda yerdan foydalanishning eski markazlashtirilgan tiziminni fazoviy va boshqaruv jihatidan qayta qurish uchun foydali vositadir.

Landshaft planirovkasi – bu mahalliy aholini turmush tarzini rejalashtirishga jalb etadigan va jamiyatni demokratlashtirish hamda uning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga hissa qo'shadigan kommunikativ jarayon. MDH mamlakatlarida landshaft rejalashtirish hududiy rejalashtirish doirasida, aniqrog'i, tabiatni muhofaza qilishning hududiy kompleks sxemasini ishlab chiqish shaklida rivojlandi. Landshaft rejalashtirishning o'sha vaqtdagi ta'rifi – jamiyatning o'sib va o'zgarib borayotgan talabini qondirish uchun landshaftning muhitini qayta tiklash va resursni qayta ishlab chiqarish qobiliyatlarini saqlash yoki yaxshilash sharti bilan landshaftlardan foydalanish loyihasini yoki landshaftlardan foydalanish metod va maqsadlarini o'zgartirish loyihasini ishlab chiqish [2] sifatida, yohud – xo'jalikda foydalanish jarayonida geografik muhitning muhim ahamiyatli xususiyatlarini saqlash va rivojlantirish bo'yicha tadbirlar kompleksi [3] sifatida ifodalanadi. Bunday ta'riflashda tabiiy landshaft va xo'jalik tizimi o'zaro qarshi qo'yilishi, loyihalashtirishda esa landshaftni saqlash lozimligi ko'zga tashlanadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Mirzacho'l tabiiy geografik okrugining tabiiy sharoiti, iqlimi, suv resurslari, meliorativ holati kabilar turli darajada o'zgarishiga bir qancha omil va jarayonlar sabab bo'lishi gidrogeolog, tuproqshunos, geograf, irrigator kabi ko'plab olimlarning ishlarida yoritilgan. Jumladan, L.N.Babushkin, N.A.Kogay (1964), A.A.Rafiqov (1976), N.N.Xojiboev (1975), R.K.Qo'ziev (1977), K.G.G'aniev (1979), V.A.Duxovniy (1984,1993), A.S.Xasanov, L.Z.Sherfedinov (1987), R.K.Ikramov (2001), L.T.Tursunov (2003), S.A.Abudullaev, A.J.Boirov (2003), O.U.Axmedov., S.A.Abdullaev, G'.T.Parpiev (2005) kabi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Mirzacho'lda vujudga kelgan meliorativ va agroekologik jarayonlar atroflicha yoritilgan. Lekin, Forish

tumani tabiati va landshaftlari ayni vaqtgacha o'rganilmagan, planirovka usuli asosida tadqiq qilinmagan.

Magistrlik dissertatsiyasining **asosiy maqsadi** Forish tumani landshaftlarining xo`jalikdagi ahamiyatini ochib berish bilan bir qatorda landshaftlar tarkibida sodir bo`layotgan o`zgarishlar, kelgusida iqtisodiyotimizni qanday rivojlantirishning tabiiy geografik jihatlari, istiqbolda foydalanish masalalari, landshaftlarni muhofaza qilish maqsadi hisoblanadi.

Tadqiqot vazifalari. Maqsadga erishishda quyidagi vazifalar begilab olindi:

Vazifalar

Forish tumani tabiiy sharoitini o`rganish.

Landshaftlarning oldingi holati va hozirgi holati orasidagi o`zgarishlarni taqqoslash.

Landshaftlarning o`zgarishiga ta`sir ko`rsatuvchi asosiy omillarni aniqlash.

Insonlarning landshaftlarga ta`sirini optimallashtirish chora tadbirlarini ishlab chiqish.

Forish tumani maydoni kesimida landshaftlar holatini va tabiatini o`rganish.

Landshaft planirovka usulini ishlab chiqish.

Tumanning Landshaft planirovkasi asosida xaritasini yaratish.

Mazkur magistrlik dissertatsiyasining tadqiqot **obyekti** bo'lib, tuman landshafti hisoblanadi. Tuman tabiati va landshafti haqidagi barcha parametrlar, tabiiy muhiti va xo'jalikka ta'siri barcha omillar va landshaft planirovkasini yaratish tadqiqot **predmeti** sanaladi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqotni olib borishda geografiyada mavjud bo'lgan bir qator metodlardan – tarixiy, kuzatuv, kameral, qiyosiy ekologik, kartografik, aerokosmik, statistik, dala tadqiqot, tizimli tahlil, tabiiy-geografik, tabiat komponentlarini miqdoriy tahlil qilish va boshqa metodlardan foydalaniladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- Forish tumani tabiati, landshaftlari ilk marotaba o'rganilib chiqiladi va xaritasi yaratiladi;

-Tabiatida kechayotgan o'zgarishlar har bir komponent miqyosida o'rganilib chiqiladi;

-Ma'lum yillardan so'ng, tumanning landshaft planirovka usuli yaratilib, xaritasi tuziladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Forish tumanining tabiatidan oqilona foydalanishda landshaft planirovkasini quyidagi mazmunda qayd etish mumkin:

Forish tumanining o'ziga xos yer resurslariga boyligi hamda tabiiy sharoitining lalmikor ekinlarni yetishtirishga qulay ekanligi;

Tuman maydonida qir va adirlar katta maydonni egallashi, iqlimi quruq kontinental bo'lishi, shamolning doimiy mavjudligi;

Landshaft planirovkasini yaratishda tuman tabiiy xaritasi, qishloq xo'jaligi xaritasi va alohida tuproq kartasi hamda tumanga tegishli bo'lgan barcha statistik ma'lumotlar asos qilib olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR*:*

1. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida» gi Farmoniga 1-ILOVA // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy ba'zasi.

2. Охрана ландшафтов. Толковый словарь / Ред. Т.А. Ольсевич. – М.: Прогресс, 1982. – 272 с.

3. Реймерс Н.Ф. Природопользование. Словарь-справочник. – Москва: Мысль, 1990. – 241 с.

4.Ландшафтно-экологическое планирование для оптимизации природопользования: учеб. пособие/ С. В. Солодянкина, М. В. Левашѐва.– Иркутск: Изд-во ИГУ, 2013. – 170 с.